

**STARTAPLAR RIVOJLANTIRISHDA XALQARO
HAMKORLIKNI ASOSIY YO'NALISHLARI**

Rahmatullayev Samandarjon Botirjon o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti, Biznes huquqi mutaxassisligi
magistranti

E-mail: samandarraahmatullayev402@gmail.com

Anotatsiya: ushbu maqolada zamonaviy global iqtisodiyot sharoitida startaplarning xalqaro innovatsion resurs sifatida ahamiyati yoritilgan. Startaplar faoliyatini huquqiy tartibga solish, xalqaro tajriba almashuvi, inkubatsiya va akseleratsiya dasturlarining roli, moliyalashtirish manbalari, intellektual mulk himoyasi va texnologik transfer kabi muhim yo'nalishlar chuqur tahlil qilingan. Xususan, Estoniya, AQSh, Janubiy Koreya, Singapur, Isroil kabi davlatlarning ilg'or tajribalari asosida O'zbekistonda startaplar uchun qulay ekotizim yaratish yo'llari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, "startap diplomatiyasi" tushunchasi va transmilliy innovatsion tarmoqlarning ahamiyati asoslab berilgan. Maqolada xalqaro hamkorlikning O'zbekistonda startap muhitini rivojlantirishdagi roli, istiqbollari va amaliy mexanizmlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Startap, xalqaro hamkorlik, huquqiy muhit, inkubatsiya, akseleratsiya, texnologik transfer, intellektual mulk, moliyalashtirish, startap diplomatiyasi, innovatsion ekotizim, ventur kapital, O'zbekiston.

Zamonaviy global iqtisodiyot sharoitida startaplar nafaqat ichki, balki xalqaro bozorlar uchun ham muhim innovatsion resursga aylanmoqda. Shu sababli, startaplarni qo'llab-quvvatlash va tartibga solish borasida xalqaro hamkorlik tobora

dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Turli mamlakatlar o‘zaro tajriba almashish, texnologik transfer, inkubatsiya va akseleratsiya dasturlarini birgalikda tashkil etish orqali innovatsion ekotizimlarni mustahkamlashga intilmoqda.

Startaplar sohasidagi xalqaro hamkorlik quyidagi asosiy yo‘nalishlarda amalga oshirilmoqda:

Startaplarning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun ular ishonchli va qulay huquqiy muhitda rivojlanishi zarur. Shu sababli, so‘nggi yillarda startaplar bilan bog‘liq huquqiy va institutsional tajriba almashuvi xalqaro hamkorlikning asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. Mazkur yo‘nalish quyidagi asosiy jihatlarni o‘z ichiga oladi:

Huquqiy va institutsional tajriba almashuvi

Startaplar uchun huquqiy maqomni aniqlashdagi yondashuvlarni o‘rganish:

Turli mamlakatlarda startaplar turli huquqiy shakllarda faoliyat yuritadi. Masalan, AQShda “C-Corporation” (ayniqsa Delaware shtatida), Germaniyada “GmbH”, Janubiy Koreyada “Private Limited Company” shakllari keng qo‘llaniladi. Har bir yondashuv o‘zining soliq yengilliklari, aksiyalar chiqarish tartibi va investorlar uchun xavfsizlik darajasi bilan farqlanadi. Xalqaro tajriba almashuvi ushbu huquqiy strukturalarning afzallik va kamchiliklarini tahlil qilish imkonini beradi.¹

Ro‘yxatdan o‘tkazish va ruxsat olish tartiblarining soddalashtirilgan modellari

Ko‘plab mamlakatlar, xususan Estoniya (e-Residency), Singapur (Bizfile portal), Koreya (StartBiz Go) onlayn va avtomatlashtirilgan tizimlar orqali

¹ OECD. (2020). *Start-ups and Entrepreneurship in the Digital Age*. OECD Publishing. SJIF:5.219

startaplarni ro'yxatdan o'tkazishni joriy qilgan. Bu tizimlar O'zbekiston kabi davlatlar uchun o'rganish va milliy qonunchilikka joriy etish uchun dolzarb namunalardir.

Soliq imtiyozlari va preferensiyalarni qamrab oluvchi tizimlar:

Xalqaro tajriba ko'rsatadiki, startaplar uchun soliq yengilliklari – eng samarali qo'llab-quvvatlash vositalaridan biridir. Misol uchun, AQShda R&D Tax Credit, QSBS exemptions, Koreyada 5 yilgacha bo'lgan daromad solig'i imtiyozlari mavjud. Yevropa Ittifoqida esa "Innovative SME" maqomi orqali startaplar maxsus soliq yengilliklaridan foydalanadi.

Litsenziyalash va tartibga solishdagi soddalashtirilgan yondashuvlar:

Fintech, AI, MedTech kabi yuqori texnologik sohalarda faoliyat yurituvchi startaplar uchun xalqaro tajribada "sandbox" yondashuvi keng tarqalgan. Bu yondashuvda startaplar real sharoitda faoliyat yuritib ko'radi, biroq vaqtincha tartibga solinmagan bo'lib, qonunchilikka muvofiqlashtirish keyinchalik amalga oshiriladi. Bunday yondashuv Buyuk Britaniya, Singapur va Janubiy Koreyada muvaffaqiyatli sinovdan o'tgan.

Normativ-huquqiy hujjatlarni uyg'unlashtirish:

Yevropa Ittifoqi va ASEAN davlatlari startaplar faoliyatini muvofiqlashtirish, umumiy definitsiya, ro'yxatga olish mezonlari va qo'llab-quvvatlash mexanizmlari bo'yicha yagona yondashuvlarni ishlab chiqmoqda. Masalan, "European Startup Nations Standard" tashabbusi orqali YEIning barcha a'zo davlatlarida umumiy innovatsion huquqiy muhit yaratilmoqda.

Xalqaro memorandumlar va hamkorlik bitimlari:

O‘zbekiston Respublikasi ham so‘nggi yillarda turli mamlakatlar bilan startaplar sohasida hamkorlik memorandumi va kelishuvlar imzolamoqda. Xususan, Koreya Respublikasi, Turkiya, Rossiya, BAA va Hindiston bilan startaplar sohasida axborot almashinuvi va qo‘shma dasturlar ishlab chiqilmoqda.

Huquqiy va institutsional tajriba almashuvi orqali nafaqat xorijiy tajribani o‘rganish, balki milliy qonunchilikni takomillashtirish, investorlar ishonchini mustahkamlash va startaplar uchun qulay tartibotlarni joriy etish imkoniyati kengayadi. Bu esa O‘zbekistonning xalqaro innovatsion maydondagi ishtirokini yanada kuchaytiradi.

Xalqaro inkubatsiya va akseleratsiya dasturlari: Startaplar ekotizimida inkubatsiya va akseleratsiya dasturlari muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular startaplar faoliyatining ilk bosqichlarida zaruriy yordam, maslahat, moliyalashtirish va tarmoq yaratish imkoniyatlarini taqdim etadi. Xalqaro darajadagi inkubatsiya va akseleratsiya markazlari esa bu imkoniyatlarni kengaytirib, startaplarni global bozorlarga olib chiqishda yordamchi vosita bo‘lib xizmat qilmoqda.

Bunday dasturlar, birinchidan, innovatsion g‘oyalarni bozorga chiqarish, mahsulotni testdan o‘tkazish, biznes-modelni takomillashtirish, investorlar va boshqa manfaatdor tomonlar bilan aloqani mustahkamlashga yordam beradi. Masalan, AQShda faoliyat yurituvchi Techstars va 500 Startups kabi yirik akseleratorlar dunyo bo‘yicha yuzlab startaplarni tanlab, ularga moliyaviy, texnik va mentorlik ko‘rinishida yordam ko‘rsatadi.

Shuningdek, Janubiy Koreya hukumatining K-Startup Grand Challenge dasturi xorijiy startaplarni o‘z hududiga jalb qilish orqali xalqaro hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ushbu dastur doirasida tanlab olingan startaplarga

Seulda bepul ofis, turar joy, yuridik maslahat, marketing va sarmoyaviy qo‘llab-quvvatlash xizmatlari ko‘rsatiladi. Bu orqali startaplar Koreya bozoriga kirib borish bilan birga, Osiyo mintaqasida o‘z o‘rnini topish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Singapurdagi BLOCK71 dasturi ham o‘zining innovatsion infratuzilmasi, universitet bilan integratsiyalashganligi va texnologik sherikliklari bilan ajralib turadi. Ushbu model doirasida startaplar raqamli mahsulotlar ishlab chiqadi, ularni sinovdan o‘tkazadi va xalqaro investorlarga taqdim etadi. Bunday klasterlar nafaqat tadbirkorlikni rivojlantiradi, balki mamlakatning innovatsion salohiyatini ham oshiradi.

Xalqaro inkubator va akseleratorlarning o‘ziga xos jihatlaridan yana biri – ularning madaniy va ijtimoiy jihatdan xilma-xillikka asoslanganligidir. Bu esa startap jamoalariga global fikrlash, til va biznes-kommunikatsiya ko‘nikmalarini shakllantirish imkonini beradi. Shuningdek, bunday muhitda faoliyat yuritgan startaplar xalqaro huquqiy va soliq tizimlariga moslashishda ham tajriba orttiradi.

O‘zbekistonda ham IT Park, Innovatsion rivojlanish agentligi va boshqa tashabbuslar orqali xorijiy inkubatorlar bilan hamkorlik qilish tendensiyasi shakllanmoqda. Masalan, Plug and Play (AQSh), Astana Hub (Qozog‘iston), KOICA (Janubiy Koreya) kabi xorijiy tuzilmalar bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. Biroq bu boradagi aloqalarni chuqurlashtirish va mahalliy startaplarni xalqaro maydonga chiqarish uchun yanada kompleks strategiyalar ishlab chiqish zarur.

Moliyaviy hamkorlik va sarmoya jalb etish: Startaplar faoliyati uchun eng muhim omillardan biri bu moliyalashtirish masalasidir. Dastlabki bosqichda, ya’ni "seed" va "early stage" holatida startaplar ko‘pincha barqaror daromad manbalariga ega bo‘lmaydi va ularning asosiy ehtiyoji tashqi moliyaviy resurslarga

bog'liq bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, xalqaro moliyaviy institutlar va xususiy sarmoya subyektlari bilan hamkorlik startaplarni qo'llab-quvvatlashda muhim o'rin tutadi.

Bugungi kunda Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki (OTB), Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YTTB) kabi xalqaro moliya tashkilotlari innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish doirasida startap sektoriga bevosita investitsiyalar, grantlar va kafolat mexanizmlarini yo'naltirmoqda². Ushbu institutlar orqali O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda startaplarni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash, risklarni kamaytirish, infratuzilmani yaxshilash va venchur muhitni barpo etish borasida dasturlar ishlab chiqilmoqda.

Bundan tashqari, soft-loan (imtiyozli kreditlar) tizimi ham rivojlanmoqda. Bu turdagi kreditlar past foiz stavkalari va uzoq muddatli to'lov jadvali asosida taqdim etiladi. Masalan, YTTB tomonidan amalga oshirilgan "Women in Business" dasturi orqali texnologik yo'nalishdagi ayollar startaplariga 5 yilgacha bo'lgan kreditlar ajratilgan.

Shuningdek, venture capital (venchur kapital) tizimi ham startaplar uchun asosiy moliyaviy manba bo'lib xizmat qilmoqda. AQSh, Singapur, Isroil, Janubiy Koreya kabi davlatlarda faoliyat yurituvchi yirik venchur fondlar (masalan, Sequoia Capital, SoftBank, 500 Startups) xalqaro darajadagi innovatsion loyihalarga sarmoya kiritadi. Ko'plab startaplar global akseleratorlar orqali investorlar bilan bog'lanib, o'z loyihasini tijoratlashtirish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Bundan tashqari, xalqaro donorlar va rivojlanish agentliklari (masalan,

² World Bank. Digital Entrepreneurship in Central Asia. – Washington, DC: World Bank, 2023. – 84 p. – [Elektron resurs]. – <https://www.worldbank.org/en/topic/digitaldevelopment/publication/digital-entrepreneurship-in-central-asia>.

USAID, KOICA, GIZ, JICA) tomonidan ham startaplar uchun grantlar, texnik yordam va maslahat xizmatlari ko'rsatilmoqda. Ushbu tashkilotlar O'zbekistonda ham faol bo'lib, ayniqsa IT, agrotexnologiyalar, ayollar tadbirkorligi va yashil texnologiyalar sohalaridagi startaplarni moliyaviy va institutsional jihatdan qo'llab-quvvatlamoda.

O'zbekistonning o'zida esa moliyalashtirish bozorida hali to'laqonli venchur kapital tizimi shakllanmagan bo'lsa-da, IT Park, Yoshlar ishlari agentligi, Innovatsion rivojlanish agentligi orqali ayrim grant va tanlovlar yo'lga qo'yilgan. Xalqaro tajriba va moliyaviy institutlar bilan aloqalarni kengaytirish orqali startaplar uchun barqaror, xavfsiz va ochiq moliyaviy ekotizim shakllantirish muhim strategik yo'nalish bo'lib qolmoqda.

Texnologik transfer va intellektual mulkni muhofaza qilish bo'yicha hamkorlik: Startaplar faoliyatining ajralmas jihatlaridan biri bu – innovatsion mahsulot yoki texnologiyaning mavjud bo'lishidir. Biroq har qanday texnologik yutuq yoki g'oya iqtisodiy qiymatga ega bo'lishi uchun u intellektual mulk obyekti sifatida himoya qilinishi zarur. Shu sababli, texnologik transfer va intellektual mulkni xalqaro darajada muhofaza qilish masalasi startaplarni rivojlantirishdagi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Startaplar uchun WIPO – Jahon intellektual mulk tashkiloti doirasidagi xalqaro mexanizmlar muhim rol o'ynaydi. WIPO tomonidan taqdim etiladigan PCT (Patent Cooperation Treaty) tizimi orqali bir vaqtning o'zida bir nechta davlatlarda patent olish jarayonini soddalashtirish mumkin. Bu, ayniqsa, global bozorga chiqish istagidagi startaplar uchun muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Xuddi shunday, Madrid tizimi³ orqali savdo belgilarini bir vaqtning o'zida ko'plab mamlakatlarda ro'yxatdan o'tkazish imkoniyati yaratilgan.

Shuningdek, turli davlatlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan startaplarning texnologik yutuqlarini tijoratlashtirish, ya'ni texnologiyani amaliyotga joriy etish va litsenziyalash jarayonini qo'llab-quvvatlash tizimlari ishlab chiqilgan. Masalan, AQShda USPTO (United States Patent and Trademark Office) tomonidan kichik biznes va startaplar uchun "Fast Track" dasturi orqali tezlashtirilgan patent olish tartibi joriy etilgan.

Yevropa Ittifoqi doirasida esa "European IPR Helpdesk" loyihasi orqali startaplar va KOB subyektlariga intellektual mulkni boshqarish, litsenziya shartnomalari tuzish va huquqiy nizolarni hal qilish bo'yicha bepul maslahatlar taqdim etiladi. Bundan tashqari, ko'plab davlatlar milliy texnologiya transfer ofislari orqali universitetlar va ilmiy markazlarda yaratilgan ishlanmalarning biznesga uzatilishini rag'batlantirmoqda.

Startaplar uchun texnologik transfer ikki yo'nalishda muhim ahamiyatga ega:

1. Ichki texnologiyani bozorga chiqarish – o'z innovatsiyasini patentlab, tijoratlashtirish orqali sarmoya jalb qilish.
2. Tashqi texnologiyani jalb qilish – xalqaro hamkorlar, universitetlar yoki kompaniyalardan tayyor texnologiyalarni litsenziya asosida olish va rivojlantirish.

³ World Intellectual Property Organization (WIPO). Patent Cooperation Treaty (PCT) – The International Patent System [Elektron resurs]. – <https://www.wipo.int/pct/en/>.
SJIF:5.219

O'zbekistonda ham bu borada muayyan qadamlar tashlanmoqda. Xususan, Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk markazi tomonidan milliy patent tizimi, dasturiy mahsulotlarni ro'yxatga olish va savdo belgilarini himoya qilish bo'yicha elektron xizmatlar yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, Innovatsion rivojlanish agentligi qoshida texnologiyalarni transfer qilish markazlari tashkil etilmoqda.

Xalqaro hamkorlik bu yo'nalishda ayniqsa dolzarb bo'lib, O'zbekiston WIPO bilan hamkorlikni kuchaytirish, WIPO Green va WIPO Match dasturlarida ishtirok etish orqali ekologik, biotexnologik va raqamli innovatsiyalarni xalqaro maydonga olib chiqish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

Startup diplomatiyasi va transmilliy innovatsion tarmoqlar Bugungi global raqobat va tezkor innovatsiyalar davrida davlatlar o'z tashqi siyosatida iqtisodiy diplomatiya doirasini kengaytirib, startaplarni xalqaro aloqalarni mustahkamlovchi vosita sifatida faol ilgari surmoqda. Ushbu yondashuv startup diplomatiyasi deb ataladi va u davlatlar o'rtasidagi innovatsion, texnologik hamda investitsion hamkorlikni mustahkamlashda yangi paradigma sifatida shakllanmoqda.

Startup diplomatiyasining asosiy mazmuni – startup ekotizimini tashqi siyosat vositasiga aylantirish orqali boshqa davlatlar bilan hamkorlik qilish, o'z milliy texnologik brendini shakllantirish va global texnobozorda raqobatbardosh bo'lishdan iborat. Bu yo'nalishda Estoniya, Isroil, Singapur va Finlyandiya yetakchi davlatlar sifatida e'tirof etiladi.

Misol uchun, Estoniya "e-Residency" dasturi orqali butun dunyo bo'ylab tadbirkorlar uchun onlayn yuridik shaxs ochish imkonini bergan. Natijada, SJIF:5.219

Estoniya nafaqat IT texnologiyalari, balki innovatsion boshqaruvda ham xalqaro markazga aylandi. Estoniya Tashqi ishlar vazirligi va Raqamli rivojlanish departamenti startaplar bilan bevosita hamkorlik qilib, ularni xorijiy bozorga olib chiqish uchun maxsus tashriflar, texnologik diplomatik forumlar va ikki tomonlama bitimlar orqali qo‘llab-quvvatlamoda.⁴

Isroil esa “Start-Up Nation” brendi ostida startap diplomatiyasini tashqi siyosatining asosiy ustunlaridan biri sifatida yuritmoqda. Isroilning elchixonalari faqatgina siyosiy yoki madaniy vakolatxona emas, balki startaplarni qo‘llab-quvvatlovchi texnologik brokergacha aylangan. Ular Isroil texnoparklaridagi startaplarni boshqa davlatlar bilan bog‘lash, ularning patent va investitsiya manfaatlarini himoya qilish, xorijiy bozorga kirishiga yuridik va marketing ko‘magi ko‘rsatishga xizmat qiladi.⁵

Transmilliy innovatsion tarmoqlar esa startaplar orqali davlatlar, yirik kompaniyalar, universitetlar va fondlar o‘rtasidagi doimiy hamkorlik aloqalari tizimini ifodalaydi. Bu tarmoqlar orqali:

- Innovatsion mahsulotlar birgalikda ishlab chiqiladi;
- Patent va intellektual mulk bo‘yicha hamkorlik yo‘lga qo‘yiladi;
- Kadrlar almashuvi va kompetensiya markazlari yaratiladi;
- Startaplar bir mamlakatda boshlanib, boshqasida tijoratlashtiriladi.

Bunday tarmoqlar global texnobozorning fragmentatsiyalashuviga emas, balki uyg‘unlashuviga xizmat qiladi. Masalan, AQShda ro‘yxatdan o‘tgan startap

⁴ Startup Estonia. E-Residency – Start a Company in Estonia Online [Elektron resurs]. – <https://www.startupestonia.ee/start-a-startup/e-residency>.

⁵ Start-Up Nation Central. Innovation Diplomacy [Elektron resurs]. – <https://startupnationcentral.org/innovation-diplomacy/>.

Germaniyada ishlab chiqilgan texnologiyani Yaponiyada tijoratlashtirishi mumkin. Bu esa innovatsiyaning geografik chegarasini yo‘q qiladi.

O‘zbekiston ham bu borada ilk qadamlarni qo‘ymoqda. Masalan, 2023-yilda O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi huzurida Innovatsion diplomatiya platformasi loyihaviy shaklda ishlab chiqilgan. IT Park va Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi xorijiy elchixonalar bilan hamkorlikda “O‘z startaplarini xalqaro tanlov va akseleratorlarga chiqarish” dasturlarini boshlagan.

O‘zbekiston Respublikasi ham so‘nggi yillarda xalqaro hamkorlikni kengaytirish orqali startap sohasini rivojlantirishga jiddiy e‘tibor qaratmoqda. IT Park, Innovatsion rivojlanish agentligi va “Startup Uzbekistan” kabi tashabbuslar orqali xorijiy mutaxassislar, investorlar va tashkilotlar bilan aloqalar yo‘lga qo‘yilgan. 2022-yilda Koreya bilan hamkorlikda o‘tkazilgan “Korea-Uzbekistan Startup Week” bunga yorqin misoldir..

Xulosa

Startaplar zamonaviy innovatsion iqtisodiyotning muhim bo‘g‘ini sifatida nafaqat ichki, balki xalqaro darajada ham faoliyat yuritmoqda. Ularning samarali rivojlanishi uchun qulay huquqiy, moliyaviy va institutsional muhit zarur. Xalqaro hamkorlik — tajriba almashuvi, moliyalashtirish, texnologik transfer va intellektual mulkni muhofaza qilish orqali milliy startap ekotizimini mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi. O‘zbekistonning global startap ekotizimiga integratsiyalashuvi uchun xalqaro akseleratorlar, inkubatorlar va donor

tashkilotlar bilan kompleks strategik hamkorlik zarur. Bu esa mamlakatning innovatsion salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Diplomacy OECD. (2020). *Start-ups and Entrepreneurship in the Digital Age*. OECD Publishing.
2. World Bank. Digital Entrepreneurship in Central Asia. – Washington, DC: World Bank, 2023. – 84 p. – [Elektron resurs]. – <https://www.worldbank.org/en/topic/digitaldevelopment/publication/digital-entrepreneurship-in-central-asia>.
3. World Intellectual Property Organization (WIPO). Patent Cooperation Treaty (PCT) – The International Patent System [Elektron resurs]. – <https://www.wipo.int/pct/en/>.
4. Startup Estonia. E-Residency – Start a Company in Estonia Online [Elektron resurs]. – <https://www.startupestonia.ee/start-a-startup/e-residency>.
5. Start-Up Nation Central. Innovation [Elektron resurs]. – <https://startupnationcentral.org/innovation-diplomacy>.